



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MAKTABGACHA TA'LIM
TASHKIL ETILISH VA TA'LIM JARAYONINI
MAVZULARI RAJOLASHTIRISH

KICHIK YULDUZ

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limi va maktab ta'limi vazirligining
Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2019 yil 27 mart kuni o'tkazilgan 1-sonli
bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Kichik Yulduz" maktabgacha ta'limi o'quv
dasturi asosida tayyorlangan



Sentabr

Oyi mavzu: “O‘zbekiston mening Vatanim”

Guruh	Kichik guruh	
Mavzu	“Men va bolalar Bog‘chasi”	
Muddati	Sentabr oyning 1-haftasi	
Rivojlanish sohalari bo‘yicha maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi	Madaniy gigienik ko‘nikmalarni shakllantirish, mustaqil qo‘l, yuz, tishlarini yuvib, sochiqdan foydalanishni o‘rganish.
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Bolalar bilan mustaqil o‘ynash va kattalar bilan muloqot qilish, o‘z tengqurlari bilan o‘ynash.
	Nutq, muloqat, o‘qish va yozish malakalari	O‘zi muloqotda o‘z nutqini aniq va ravon ayta bilish
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Atrof muxitdagi qiziqishishi, dunyoga bo‘lgan qiziqishini ko‘p va kamligini o‘rganish.
	Ijodiy rivojlanish	Aqlan to‘g‘ri rasmlardan foydalanish

Rivojlanish markazlari		Ta‘lim-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar, ilovalar
Erkin faoliyat	Qurish va konstruksiyalash, matematika	Kubik va g‘ishtchalardan “Bog‘cha quramiz”					Kubik, g‘isht va yarim g‘ishtchalar, yog‘ochdan g‘ishtchalar, 1-3 gacha bo‘lgan kartochkalar, sanoq choplar, turli xil o‘yinchoqlar
	Syujetli-rolli o‘yinlar va drammalashtirish	O‘yin: “Kelinglar tanishamiz”,			O‘yin: ”Bolalar Bog‘chasi”		“Mening guruhim” Mavzusidagi rasmlar to‘plami
	Nutq va til			“Mening guruhimdagi jihozlarim”			xar xil o‘yinchoqlar, guruhdagi jihozlar
	Fan va tabiat				Xona gullari bilan tanishtirish.		
	San‘at markazi	Rasm: Bayroqcha bo‘yash	Loy ”Do‘stlarim uchun teshik kulchalar”	Rasm: “Gullar”	Yelimlash: Bayroqcha		Loy, doska, loy uchun pichoqcha, salfetka, bo‘yoq, cho‘tka, suv uchun idish, oq qog‘oz, rangli qalamlar, rangli qog‘oz, yelim.
	Umumiy guruh bo‘lib ishlash						

Sentabr 1-hafta
Hafta mavzusi: Oila va bolalar
Bog'cha qurilishi

Geometrik shakllar, ranglar, bayroqchalar

Maqsad: Bolalarni geometrik shakllar va bayroqchalar shakllari bilan tanishtirish. Kenglik va uzunlik g'ishtchalaridan qurilishni o'zlashtirish taqdim etiladi.

Jihoz va materiallar: Geometrik shakllar, bayroqcha, g'ishtchalar Bog'cha qurilishining fotosuratlari.

Faoliyatning borishi:

1. Bog'cha binosi aksini o'zlashtirish tomosha qilish.
2. Qurilish uchun kerak bo'lgan materiallarni tanlash.
3. Bog'cha qurilishi.
4. Bolalar ishlarini baholash.

Qo'shimcha qism: bolalarga mayda o'yinchoqlar berib Bog'cha xovlisini bezatishni taklif etish.

E'tiborga molik jihat: Geometrik shakllar va qurilish materiallar to'g'risidagi tushunchani mustaxkamlash.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi.

“Kelinglar tanishamiz” o'yini.

Maqsad: Do'stlari bilan do'stona munosabatda bo'ladi, o'z ism sharifini to'liq ayta oladi, muloqot madaniyati shakllantiradi.

Kerakli jihazlar: Oila surati, bolalar o'zlarini va oila a'zolarining foto suratlari.

Faoliyatni borishi:

1. Oila sur'ati bilan tanishadi.
2. Oila a'zolarining foto suratlari bilan bir-birini tanishtiradi.

3. Bolalar o'zlarini foto suratlari bilan bir-birini tanishtiradi
4. Bir-birini foto suratlarini olib ismlarini aniqlash.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism:

Bir-birlariga kayfiyat ko'taruvchi so'zlar aytish.

E'tiborga molik jihat: Bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilish, nutqni rivojlantirish.

San'at markazi:

Rasm “ Bayroqcha bo'yash ”.

Maqsad: qalamlardan to'g'ri foydalanadi, bayroqchaga o'rganadi, ranglarni ajratadi..

Jihozlar va materiallar: Trafaret orqali bayroqcha shakli tushirilgan qog'oz, rangli qalam, bayroqcha.

Faoliyatni olib borilishi:

Bayroqchani bayroqlatish.

2. Namuna bayroqchadan bayroqchani bayroqlatish.
3. Bayroqchani bayroqlatish.

Qo'shimcha qism: bolalarga bayroqchalar bayroqlatishni taklif etish.

E'tiborga molik jihat: Bayroqchalar bayroqlatishni o'zlashtirish.

San'at markazi:

Loy : “Do'stlar teshikkulcha”

Maqsad: Loy bo'lagidan ishlashni o'zlashtirish, do'stlari uchun teshikkulcha yasashni o'zlashtirish.

Jihozlar va materiallar: Loy bo'lagi, taxtachalar, salfetka,

Faoliyatni olib borilishi:

1. Bolalarni teshikkulchalarni yasashni o'zlashtirish.
2. Tayyor namuna bilan tanishadilar.
3. Loy bo'lagidan teshikkulcha yasashadi .
4. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: Bolalarga yasagan teshikkulchalar bilan o'yinchoqlarni mexmon qilishni taklif etish.

E'tiborga molik jihati: Tasavvurini va mayda matorikani rivojlantirish

Nutq va til markazi.

“Mening guruhimdagi jihozlarim”

Maqsad: O'z guruhidagi jihozlarni asrab avaylashni o'rganadi, ularning nomlarini aytib beradi.

Jihozlar va materiallar:Guruhdagi jihozlar va suratlari, turli predmetlar suratlari. AKT.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Bolalar suratlarni ko'rib chiqadi,
2. Guruhni ko'zdan kechiradi.
3. Suratlarni olib guruhdagi xuddi shunday jihozni oldiga qo'yishadi.
4. Turli predmetli suratlarni ko'rib chiqib qaerda turishini aniqlashadi.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: AKT, diskdan guruhlar tasvirlangan filmni tomosha qilish.

E'tiborga molik jihati: guruhdagi jihozlarni nimaga va qanday ishlatilishi haqida tushuncha berish..

San'at markazi:

Rasm: “ gullar”.

Maqsad:.Qo'l motorikasini rivojlanadi, qalam bilan dumaloq chiziqlar chizishni o'rganadi.

Jihozlar va materiallar: Gullar, gullar surati, qog'oz va rangli qalam.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Guldestani tomosha qilish.
2. Suratdagi gullarini tomosha qilish.
3. Namuna bilan tanishish.
4. Rangli qalamlarni tanlash.
5. Qog'ozga gullar chizadi.
6. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism:Tabiat musiqasini tinglash.

E'tiborga molik jihati:

1. O'zi chizgan rasmdan zavqlanadi.
2. Rangli qalamlardan to'g'ri foydalanganligi.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi.

“Bolalar Bog'chasi”.

Maqsad:Jamoaviy o'yinda ishtirok etadi, o'yin syujetiga muvofiq holda o'zining rolini bajaradi,Bog'chadagi kasb egalarini taniydi.

Kerakli jihozlar: oshpaz, xamshira, tarbiyachi kasblarini jihozlari (fartuk, shapka, jurnal, kitob, ruchka, folendoskop va x.k), Bog'chalarni suratlari,o'yinchoqlar.

Faoliyatni borishi:

1. Bog'cha suratini tomosha qilish.
2. Oshpaz, xamshira va tarbiyachi suratlari bilan tanishish.
3. Suratlarni olib rollarni taqsimlash..
4. Kerakli jihozlarni taqsimlash.
5. O'yin jarayoni.
6. Rollarni almashtirish.
7. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: AKT orqali Bog'cha xayotidan lavhalar tomosha qilishni taklif etish.

E'tiborga molik jihat:

Bolalarningoshpaz, hamshira, tarbiyachi, yordamchi tarbiyachilarning mehnati haqida tushunchalarni shakllantirish. O'z Bog'chasiga mehr qo'yishga o'rgatish.

Fan va tabiat markazi.

“Xona gullari bilan tanishtirish”.

Maqsad:Xona gullarini biladi, ularni parvarishlash usullarini o'rganadi, tabiatga mehri uyg'onadi.

Kerakli jihoz va materiallar.

Xona gullari, suv, kagich, turli xil xona gullarinig suv, kagich gullari haqida kartochka

Faoliyatni olib borilishi:

1. Xona gullari haqida suhbatlash.
2. Xona gullari haqida rasmlar bilan tanishish.
3. Xona gullari haqida suv quyish, kagichni artish va kagich aks ettirish kartochka bilan tanishish.
4. Ushbu kartochka bilan tanishish va kagichni qo'yish.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: Tashkilotchilarni rag'batlantirish.

gullarga suv quyish va kagichni artishni taklif etish.

E'tiborga molik jihati: Bolalarning xona gullari haqida

gullariga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish.

San'at markazi:

Applikatsiya :“ Bayroqcha ”.

Maqsad:Tayyor bayroqcha shaklini qog'ozga to'g'ri joylashtirib yopishtirishga o'rganadi.

Jihozlar va materiallar: Rangli bayroqchalar shakli, yelim, oq qog'oz, salfetka, turli xil rangdagi bayroqchalarning rasmi.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Rasmlarni ko'zdan kechirish.
 2. Bolalar tomonidan ishni bajarish uchun rangli qog'ozlar tanlash.
 3. Namunani ko'rish.
- Bolalar faoliyati.

Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism:bolalar ishlaridan

har qaysi birini namuna tashkil etishni taklif etish.

E'tiborga molik jihati: Bolalarning

bayroqchalarini tayyorlashga qiziqishlarini uyg'otish

Sentabr
Oyi mavzu: “O‘zbekiston mening Vatanim”

Guruh	Kichik gr _____ nomli guruh _____	
Hafta mavzusi	Thrim	
Davriy mavzu	2-haftasi	
Rivojlanish soxalari bo'yicha maqsadlar	...a sog'lom ... shakllanishi	Sayr paytida, Bog'chaga kelib va ketish paytida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.
	...biy-xissiyat ...	Kattalar , tengdoshlari va oila a'zolari bilan muloqot qilishga rivojlantirish.
	...N ... va Y ... kalarini ...	Muloqotda faollik bildirib, o'zining ayrim xarakatlarini so'z bilan ifodalay olish.
	Bilish jarayonini ... tanishi	Sh ... dagi birinchi ta'surotlarini tadqiq qiladi. ... hiron bir belgisiga qarab ajratadi: olti xil rangni ajratish.
Ijodiy rivojlanish xalq ... iy san'ati, o'yinchoqlar va voqealigni qabul ... kmasida namoyon etishi.	

Rivojlanish markazlari		Erkin faoliyat				
		Dushanba	Seshanba	Payshanba	Ushbu hafta	Resurslar, ilovalar
Erkin faoliyat	Qurish va konstruksiyalash, matematika	“Do‘kon quramiz”				Qurilish materiallari, lego, konstruktorlar.
	Syujetli-rolli o‘yinlar va drammalashtirish		“Magazin-magazin”			Magazin o‘yini jihozlari, anulyailer, cheklar.
	Nutq va til		“Toshkent shaxri bilan tanishtirish”			Toshkent shaxri bilan syujetli
	Fan va tabiat			Suvning xususiyat lar,		Suvning xususiyat lar, ... ishlar, ... asmlar
	San'at markazi	Rasm. Bizning ko'chamiz	Loy. Rangli koptokchalar	Rasm. Mening uyim "Favvora"	Yelimlash. Mustaqillik sharlari.	... ska, loy ... ena,salf ... tka, ... og' ...
	Umumiy guruh bo'lib ishlash					

Sentabr oyi 2-hafta

Hafta mavzusi: Mening shahrim

Qurish va konstruktivlik, matematika markazi.

“Do’kon”

Maqsad: O’zini tasvirlashadi va

qurilish materiallari bilan market

quradi. Lego, lego plastma

g’ishtlarda quriladi.

Jihoz va materiallar: O’zini tasvirlash

materiallari, lego, lego g’ishtlari

Faoliyatning borishi: O’zini tasvirlashadi va qurilish materiallari bilan market quradi.

1. Do’kon rasmni ko’rish.
2. Namuna bilan tanishish.
3. Qurilish materiallari bilan tanishish.
4. Do’kon qurish.
5. Rag’batlantirish.

Qo’shimcha qism: Mayda o’yinchi qurilish materiallari bilan market qurishni tasvirlab berish.

berish, do’kon oldiga avtoturargox

(stoyanka) tashkil etishni taklif etish..

E’tiborga molik jihat:

1. Tasavvurini rivojlantirish.
2. Qurilish materiallarini to’g’ri tushunish.

Syujetli-rolli o’yinlar va dramalashtirish markazi..

“Magazin-magazin”.

Maqsad: Magazin haqida tasavvuri

kengayadi, lug’at boyligi oshadi, o’rtoqlari bilan muloqotga kirishadi.

Kerakli jihozlar: Magazin o’yini jihozlari, rastalar, tarozi, mahsulot uchun savatlar, qog’oz pullar va boshqalar.

Faoliyatni borishi.

1. Magazin faoliyatidan videolavha ko’rish(AKT orqali).
2. Magazin jihozlari bilan tanishish.
3. Rollarni taqsimlash.
4. O’yin jarayoni. Rollarni almashtirib o’ynash.
5. Rag’batlantirish.

Qo’shimcha qism.

Kundalik xayotda qanday magazin, marketlar borligini aytib berishni taklif etish.

E’tiborga molik jihat.

1. O’yin faoliyatida bolalarni o’zaro munosabati “raxmat, marxamat” so’zlarini o’z o’rnida ishlatishiga e’tibor berish..

San’at markazi:

Rasm: “Bizning ko’chamiz”.

Maqsad: O’z ko’chalarini nomlay oladi, tasavvur qilishni biladi, rangli qalamlardan tasvirlashni to’g’ri foydalana oladi.

Jihozlar va materiallar: Oq qog’ozlar, rangli qalamlar, mavzu bo’yicha suratlar.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Tasvirlangan rasmni kuzatish.

2. Tasvirlashni ko’rish.

3. Tasvirlashni tasvirlab berish.

4. Rag’batlantirish.

5. O’yin jarayonini rag’batlantirish.

Qo’shimcha qism: “Ko’chalar”

tasvirlashni ko’rish.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Tasvirlangan rasmni kuzatish.
2. Tasvirlashni ko’rish.

Nutq va kommunikatsiya markazi

“Toshkent shahri albomini yaratish”

Maqsad: O’z shahri albomini yaratish, sazoavorjoylarni tasvirlashni ko’rish, diqqatga sazoavor joylarni ko’rish va bilish.

Jihozlar va materiallar: Toshkent shahri haqidagi albom va suratlar, kartochka bog’i, favvara, bolalar o’yin qog’ozlari, AKT, disklar.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Toshkent shahri albomini tomosha qilish.

2. Toshkentdagi Sirk, favvora, istiroxat bog'i, bolalar o'yin maydonlari suratlari (videolavhalari) bilan tanishish.
3. Taasurotlari bilan o'rtoqlashish..
4. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism:Toshkentning yana qanday diqqatga sazovor joylari borligini aytishni taklif etish.

E'tiborga molik jihati:

1. Bolalarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.
2. Bola o'z fikrlarini ravon ayta olish.

San'at markazi:

Loy: “ Rangli koptokchalar”

Maqsad: Plastilin bilan ishlashning kaft orasida dumaloqlash usulini egallaydi, koptoklarni shakli va ranglarini ajratadi.

Jihozlar va materiallar:Plastilin, taxtachalar, salfetka, rangli koptokchalar.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Bolalar turli rangdagi koptokchalarni tomosha qiladi va qo'l bilan ushlab ko'radi.
2. Namunalar bilan tanishadi.
3. Kerakli bo'lgan rangdagi plastilinni olib yasash.
4. Bolalar ishlaridan ko'rgazma uyushtirish.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism:Koptokchalar bilan o'yin.

E'tiborga molik jihati:Ijodiy qobiliyatini, barmoqlarning mayda matorikasini rivojlantirish.

Fan va tabiat markazi.

“Suvning xususiyatlari bilan tanishish”.

Maqsad: Suvning xususiyatlarini bilish, uni tabiatda qaerda va qanday ko'rinishda uchrashini ko'rsatish, favvoralar bilan tanishish.

Jihoz va materiallar.

Idishda suv, idishchalar, chuqur tarelka, kichkina qoshiq, paxta, favvoralarni rasmi.

Faoliyatning borishi.

1. Suvning hususiyatlari bilan tanishish (xo'lligi, muzdekligi.oqishi)
2. Suv bilan o'ynash (qog'oz qayiqchalar, suv o'yinchoqlari) .
3. Bolalarni rag'batlantirish

Qo'shimcha qism:Favvoralar haqida videorolik ko'rishni taklif etish.

E'tiborga molik jihati: Suvni tejash haqidagi tushuncha berish.

San'at markazi:

Rasm: “Favvora”.

Maqsad:Mo'yqalam yordamida to'g'ri chiziq chizish orqali favvora chizishga o'rganadi. Ranglarni ajratadi.

Jihozlar va materiallar:A4 formatida oq qog'oz, akvarel bo'yog'i, mo'yqalam, idish suv, salfetka..

Faoliyatni olib borilishi:

1. “Favvoralar” tasvirlangan suratlarni ko'rish.
2. Namuna bilan tanishish.
3. Mo'yqalam va ranglarni tanlash.
4. Bolalar ishlari.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism:Toshkent shaxrida joylashgan favvoralar haqida so'rash.

E'tiborga molik jihati: Ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish..

San'at markazi:

Applikatsiya: “ Mustaqillik sharlari”.

Maqsad: Rangli qog'ozlar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish, ranglarni ajrata bilish, tayyor shar shakllarini qog'ozga to'g'ri joylashtirish.

Jihozlar va materiallar: Oq qog'oz, rangli sharlar shakli, yelim, salfetka, rangli sharlar rasmlari.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Bolalar bilan rangli sharlar rasmlarini ko'rib chiqish.
2. Namunani ko'rish.
3. Rangli sharchalarni o'z xoxishiga ko'ra tanlash.
4. Applikatsiya ishining tartibini ko'rsatib berish.
5. Bolalar ish jarayoni.
6. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: Yelimlangan sharchalarga rangiga mos qalam bilan iplarini chizishni taklif qilish.

E'tiborga molik jihati: Bajargan ishlaridan zavq olishga o'rgatish.

Fan va tabiat markazi.

“Toshkent istiroxat bog'lari”.

Maqsad: Toshkentdagi istiroxat bog'lari bilan tanishadi. Istiroxat bog'larining nomlarini ayta oladi, shaxsiy xayotdan hikoya tuzadi.

Kerakli jihoz va materiallar.

Istiroxat bog'larining suratlari.

Faoliyatning borilishi.

1. Istiroxat bog'larining suratlari bilan tanishib chiqadi.
2. Istiroxat bog'idagi daraxtlar, gulzorlar, favvoralar, xayvonchalar haqida suratlar ko'rish.
3. Tarbiyachi yordamida istiroxat bog'larini nomlarini aytish.
4. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: Borgon istiroxat bog'larida ko'rgan narsalari haqida gapirib berishni taklif etish.

E'tiborga molik jihati: Atrof muxitni, tabiatni asrashga o'rgatib borish..

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek456 izlab telegramga murojaat qilishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant doc formatda beriladi.

Kichik guruhlarga 117 listdan iborat ta'limiy mavzuviy rejalashtirishni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.